## 2023- yilning yanvar-iyun oylarida Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

**YAHM hajmi,** ***mlrd. so‘m***

**18 888,1**

**YAHM o‘sish sur’ati**

**104,4 %**

**YAHM deflyator indeksi**

**115,3 %**




Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023- yilning yanvar-iyunida Surxondaryo viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 18 888,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 4,4 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-iyunidagi narxlariga nisbatan 115,3 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo‘shgan hissasi 4,0 % ga yetdi.





## 2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd. so‘m* | | **O‘sish sur’atlari,** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| | *2022- yil* | *2023- yil* | |
| **I. YAHM, jami** | **15 689,7** | **18 888,1** | **104,4** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 15 238,4 | 18 513,8 | 104,3 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 451,3 | 374,3 | 108,2 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **15 238,4** | **18 513,8** | **104,3** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **7 031,7** | **8 628,3** | **103,8** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **2 268,5** | **2 736,8** | **107,8** |
| sanoat | 930,0 | 1 183,6 | 106,1 |
| qurilish | 1 338,5 | 1 553,2 | 109,0 |
| **xizmatlar** | **5 938,2** | **7 148,7** | **103,7** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 356,9 | 1 570,7 | 102,5 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 705,3 | 856,3 | 108,2 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 3 876,0 | 4 721,7 | 103,3 |



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 6 694,6 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 % ga yuqoridir.

**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**
*(ming so‘mda)*




**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari**
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*










**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi** *(jamiga nisbatan % da)*

| | *2022- yil* | *2023- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 97,1 | 98,0 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 2,9 | 2,0 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **46,1** | **46,6** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **14,9** | **14,8** |
| sanoat | 6,1 | 6,4 |
| qurilish | 8,8 | 8,4 |
| **xizmatlar** | **39,0** | **38,6** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 8,9 | 8,5 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 4,6 | 4,6 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 25,5 | 25,5 |



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi** *(jamiga nisbatan % da)*

**2022- yil**




| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 46,1 % |
| Sanoat | 6,1 % |
| Qurilish | 8, 8 % |
| Xizmatlar | 39,0 % |

**2023- yil**




| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 46,6 % |
| Sanoat | 6,4 % |
| Qurilish | 8,4 % |
| Xizmatlar | 38,6 % |

- Yalpi qo‘shilgan qiymat
- Mahsulotlarga sof soliqlar

2023- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 46,6 % ni, sanoat tarmog‘i 6,4 % ni, qurilish 8,4 % ni va xizmatlar sohasi 38,6 % ni tashkil qildi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2023- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi**
*(jamiga nisbatan % da)*




YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 1,7 f.p. (2022- yilning yanvar-iyunida – 1,2 f.p.), sanoat tarmog‘i – 0,3 f.p. (2022- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,8 f.p. (2022- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.) va xizmatlar sohasi – 1,4 f.p. (2022-yil-ning yanvar-iyunida – 1,6 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliq-larning o‘sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2022- yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.)ga ko‘paydi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari**

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| | 2022- yil | 2023- yil |
|---|---|---|
| YAHM | 3,4 | 4,4 |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 2,5 | 3,8 |
| Sanoat | 4,0 | 6,1 |
| Qurilish | 3,2 | 9,0 |
| Xizmatlar | 4,4 | 3,7 |

2023- yilning yanvar-iyunida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,8 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 46,6 %), sanoatda – 106,1 % (6,4 %), qurilishda – 109,0 % (8,4 %), xizmatlar sohasida – 103,7 % ni (38,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 102,5 % (8,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,2 % (4,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,3 % dan (25,5%) iborat bo‘ldi.



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

### 2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*










2023- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2022- yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 115,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari sanoatda – 119,9 % va qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 118,3 % qayd etildi.











**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi**

| | Hajmi, *mlrd. so'm* | Ulushi, *% da* |
|---|---|---|
| 2022- yil | 11 519,4 | 75,6 |
| 2023- yil | 13 883,5 | 75,0 |



2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 13 883,5 mlrd. so‘mni tashkil etib (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – 11 519,4 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 75,0 % ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – 75,6 %).

Kichik tadbirkorlik-ning YAHMdagi ulushi-ning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxona-lar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

